

AMIR TEMUR – MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI

Boburjon Dadaboyev,

Farg‘ona davlat universiteti magistranti, O‘zbekiston, Farg‘ona shahar

Annotatsiya:

Temuriylar davri ma’naviyati yurtimiz tarixidagi zarhal harflar bilan bitilgan ulkan xazinadir. Bunday ma’naviy meroslarni o’rganish, ularning mislsiz ma’nolaridan ma’naviy ozuqa olish, yosh avlodni ham bunday ma’naviy ozuqalardan bahramand etib borish va shu yo’l orqali xalq, millat, Vatan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo’shish – biz avlodlarning muqaddas burchlarimizdandir.

Amir Temur – buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, ma’naviy-axloqiy fazilatlar sohibi, notiq, shu bilan birga el-yurtini, xalqini sevgan va uni jahonga mashhur qilgan xalqimiz farzandi. Amir Temurda Vatanni sevish, xalqini ulug‘lash, ulardan faxrlanish singari oliy ma’naviy fazilatlar barq urib turgan. U o’zi barpo etgan buyuk davlatni milliy va axloqiy qadriyatlarga tayanib idora qildi. bu esa jamiyatniadolat, invonparvarlik mezonlari asosida boshqarishga, mamlakatda osoyishtalik, tinchlik, totuvlik saqlanib turishiga olib keldi.

Kalit so‘zlar: adolat, ma’naviyat, temuriylar davrida madaniyat, axloqiy fazilat, “Temur tuzuklari”, madaniy meros.

KIRISH

Amir Temur jahon tarixidagi buyuk siymolardan biri, Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan ulug‘ davlat arbobi va mohir sarkarda, fan va madaniyat homiysi bo‘lgan. Amir Temur shaxsida insonning oliy vujudiga xos fazilatlar mukammal va to‘la mujassam bo‘lgan. Undagi joziba, surat va siyrat, oddiy odamlardan tubdan farq qiluvchi qobiliyat – so‘z bilan ifoda etish qiyin bo‘lgan ilohiy muhofaza, boshqalar bilmaganni bilish, boshqalar ko‘rmaganni ko‘rish, tashqi qiyofa ko‘rkamligi, qat’iyat, bahodirlik, hatto ovozning jalb etish ohangi, muomala madaniyati, ishontira olish xususiyati uning butun faoliyati chizgilarida, qutblarida mujassamlashgan.

“XIV asrdagi ulkan va yorqin siymo – Amir Temurning tutgan o’rni alohida ahamiyatga egadir. Amir Temurni jahon tarixiga qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etib, o’rta asr dunyosining asl madaniy va ma’naviy markazlaridan biriga aylangan, inson aqli va iste’dodining noyob ijodi bo‘lib, bugungi kunda ham saqlanib qolgan mislsiz me’moriy obidalari bilan mashhur Samarqandni uning poytaxtiga aylantirgan atoqli sarkarda va davlat arbobi sifatida yod olamiz”[1, 27].

ASOSIY QISM

Ha, baland tog‘lar shukuhi va salobati undan uzoqlashib borgan saringiz ko‘z oldingizda yanada buyuklik kasb etgani singari bobomiz Amir Temur Ko‘ragon siymosi ham mustaqilligimiz sharofati bilan o‘zining baland qadr-qimmatiga, yuksak martabasiga ega bo‘ldi. Bugungi yosh avlod Sohibqiron deganda tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan nurli

siyemoni, kuchli irodasi va aql-idroki bilan yirik sultanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirgan ma’naviy barkamol insonni ko‘z oldiga keltiradi. Haqiqatan ham, agar bobomizning ma’naviy olami yuksak va benazir bo‘lmaganda, ilmu fan, madaniyat, bonyodkorlik, din va ma’rifat rivojiga bu qadar salmoqli hissa qo‘sha olmagan bo‘lar edi.

Amir Temurning o‘zi hayotlik paytida yaratilgan tarixiy kitoblarni, shuningdek, undan keyingi asrlarda dunyoga kelgan asarlarni mutolaa qilsak, uning bir qator ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lgan muruvvatli va donishmand inson bo‘lganini ko‘ramiz. Biroq bu borada eng ko‘p ma’lumot beradigan manba, bizningcha, uning kelajak avlodlarga yozib qoldirgan o‘git va pand-nasihatlaridir. “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”, “Qilmoqchi bo‘lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasınlar. Agar biror ishni qilmaslikka so‘z berar ekanlar, yaqiniga ham yo‘lamasinlar. Xotirdan chiqmasinkim, tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi” singari so‘zlar kishini ioda sohibi bo‘lishga chaqiradi, o‘z oldiga qat’iy maqsad qo‘yib, uni ro‘yobga chiqarish niyatida oldinga intilish kutilgan natijani qo‘lga kiritishga olib kelishini ta’kidlaydi. Bizning fikrimizcha, bu o‘gitlar hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan bir davrda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Adolat va insof, do‘stu dushmani farqlash, zolimlar dodini berib, mazlumlar haqqini himoya qilish Sohibqiron hayotining mazmunini tashkil etadi desak, aslo yanglishmaymiz. Ana shu adolatparvarlik g‘oyasi uning bir qator hikmatlarida o‘z muxtasar ifodasini topgan. “Kuch – adolatda” shioriga hamisha qat’iy amal qilgan bobomiz buni o‘z so‘zlarida shunday bayon etadi: - “Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim”.

- Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muofiq odamlar o‘rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o‘rniga boshqasiga jabr-zulm o‘tkazmadim.”

MAVZUNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Muarixlarning yakdillik bilan tasdiqlashlaricha, Amir Temurning adolatparvarligi, xalqparvarligi, ayniqsa, raiyat deb atalgan oddiy odamlar sha’nini, yordamga va himoyaga muhtoj miskinlarni, zolimlar zulmi ostida ezilgan miskinlarni o‘z himoyasi ostiga olishi uning eng olijanob insoniy fazilataridan bo‘lib, adolatni bu qadar mahkam tutib turish kamdan-kam hukmdorga nasib etgan.

Ana shunday pok e’tiqod bilan yashagan Sohibqironning o‘z hukmi ostidagi bepoyon hududlarda adlu insof bilan davlat yuritishga jiddu jahd ko‘rsatishi, bonyodkorlik va obodonchilik ishlariga katta e’tibor berishi tabiiy edi. Tahsinga loyiq jihat shuki, uning serqirra bonyodkorlik faoliyati, shaharsozlik ilmiga qo‘sghan hissasi, yaratgan bino va bog‘lari jahon tarixchilari, olimlari va adiblari tomonidan ko‘p marta e’tirof etilgan.

Sohibqiron Amir Temur davlat ishini to‘g‘ri odilona boshqarishda aqli raso, xushyor kishilar bilan bamaslahat ish yuritgan; ishbilarmon, tadbirkor, mard, shijoatli, xushyor kishilarni qadrlagan; fuqarolarga rahm – shafqatli bo‘lgan; yomonlik qilib, keyin tavba qilganlarni

kechirgan; jasur, shijoatli kishilarni do'st tutgan; ulug'larni ustoz qatorida, kichiklarni farzand qatorida e'zozlagan; olim-u fozillar ijodiga yo'l ochib bergan; mehnatsevar, hayr – ehsonli kishilarni qo'llab – quvvatlagan. Shu sababli temuriylar davrida madaniyat, ma'naviyat va iqtisod rivojlangan. Buyuk sarkarda hatto o'z farzandlari va nabiralariga xalqning, davlatning, jamiyatning ma'naviy – axloqiy kamolotini davlat barqarorligi va rivojlanishining asosiy omillaridan biri deb qarashni vasiyat qilgan.

Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni o'rgansak, uning ko'p yaxshi xislatlari: to'g'rilik, ma'naviyatlilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat va boshqalarni kuzatish mumkin. Amir Temurning "Temur tuzuklari", Sharofiddin Ali Yazdining "Zafarnoma"si, Ibn Arabshohnning "Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari" kabi asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va o'gitlarida ma'naviy jasorati kuzatiladi. Bular el-yurt va fuqarolarning tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, qo'shnichilik odobi, mardlik va qahramonlik haqidagi o'gitlaridir.

Amir Temurning siyosat maydoniga qadam qo'yishida ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan birga, uning shaxsiy fazilatlari va imkoniyatlari katta rol o'ynaganligini inkor etish mumkin emas. Chunonchi Amir Temurning navqiron yoshlik yillari ona yurtining bag'rikeng dala-yu dashtlarida ot choptirib, chavandozlik, jismoniy chiniqish, merganlik, harbiy o'yin va mashq sirlarini puxta egallash bilan o'tganligi unda o'z yurtiga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat, otabobolar o'gitlariga sadoqat, vatandoshlar or-nomusi uchun kurashish, yurtdoshlarning sha'ni va nufuzini himoya qilishni barcha narsadan ustun qo'yish kabi xislatlar egasi bo'lgan dovyurak bahodir bo'lib yetishishida o'ziga xos zamin bo'ldi.

Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan dono hukmdor bo'lib, ham siyosiy ham ma'naviy jihatdan juda katta tarixiy ahamiyatga egadir. Bular:

1. Amir Temur XIV asrdayoq mamlakat va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirib iqtisodiy makonga birlashtirishga harakat qildi. Integratsiyani ishlab chiqib Buyuk ipak yo'li o'tgan mamlakatlar o'rtasida madaniyatlar muloqotini boshlab berdi.
2. Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishda o'ziga xos mакtab yaratdi, adolatli jamiyat qaror toptirishda qonun ustivorligiga rioya qildi.
3. Amir Temur davlatchilik tamoyillarini rivojlantirdi, uni aql-idrok salohiyatiga, taktik va strategik asosida shakllantirdi.
4. Amir Temur sadtanati ma'naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo'g'irilgan sultanat edi... Sohibqiron piru komil shayx Bahovuddin Naqshbandiyning: "Kam egin, kam uxla, kam gapir", - degan pandu nasihatlariga amal qilgan. Shuningdek, Amir Temur ham arkonu davlatga, barcha mulozimlarga: "Kam englar – ocharchilik ko'rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlangler – mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo'lasizlar", - deya nasihat qildi.

Amir Temur o'zi barpo etgan buyuk davlatni milliy va axloqiy qadriyatlariga tayanib idora qildi. Bu esa jamiyatni adolat, insonparvarlik mezonlari asosida boshqarishga, mamlakatda osoyishtalik, tinchlik, totuvlik saqlanib turishiga olib keldi. Temur o'z qo'li ostidagi rahbarlardan, sarkardalardan ham axloqli, odobli, adolatli bo'lishni talab qildi. U o'zining "Tuzuk"larida rahbarlarning axloqli, adolatli bo'lishi jamiyat, davlat va millat uchun qanday katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib berdi.

“Amir Temur o’zini mohir diplomat sifatida ham namoyon qila olgan. Uning Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Ispaniya, Frantsiya, Angliya, boshqacha aytganda, o’sha vaqtida ko’proq ma’lum va mashhur bo’lgan Ovro’pa davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar o’rnatish va uni mustahkamlash sohasidagi faoliyatini frantsuz va ingliz qiollarining unga yozgan maktublari bilan dalillash mumkin”[2].

Tarixdan ma’lumki, temuriylar deb nom olgan sulola Movarounnahr, Afg'oniston, Eron, Ozarbayjonda XIV asr 70-yillaridan XVI asr boshlarigacha hukmronlik qiladi. Temur va uning avlodlari davrida Turonzaminda madaniy taraqqiyotda sezilarli siljishlar ro'y beradi.

Amir Temur davlat ishlarini yurgizishda 4 narsaga doim amal qildi. Bular: 1. Kengash. 2. Mashvaratu maslahat. 3. qat'iy qaror, tadbirkorlik va xushyorlik. 4. Extiyotkorlik.

Amir Temur hukmdor uchun quyidagi o'n ikki xislat zarurligini va bu xislatlarning birortasiga amal qilinmasa sultanat ishlariga putur yetishi mumkinligini tarixiy misollar bilan isbot qilib bergen edi. Amir Temur hukmdor birinchidan o'z so'ziga ega bo'lishi, ikkinchidanadolatpesha bo'lishi, uchinchidan har ishda faqat o'zi hukm chiqarishi, to'rtinchidan qarorida qat'iy bo'lishi, beshinchidan hukmi joriy etilishi, oltinchidan podsholik ishlarini har kimga topshirib qo'ymasligi, yettingidan ko'pchilikning fikrini eshitishi, sak qizinchidan shoshmasdan mulohaza bilan ish yuritishi, to'qqizinchidan sipohu, raiyatni umid va qo'rquv orasida saqlashi, o'ninchidan barcha ishni o'z erkicha qilishi, o'n birinchidan o'z ishlariga birovni sherik qilmasligi va o'n ikkinchidan davlat ishlarini maxfiy saqlab, boshqalardan ogoh va hushyor bo'lishligi lozimligini alohida o'qtirgan edi.

Sohibqiron Amir Temurning buyuk sultanati juda katta va boy ma'naviy zaminga qurilgan, uning davlatining asosiy ustuni ma'naviylik bo'lgan edi. Mana shu poydevor Temurning “Temur tuzuklari” asarida bayon qilingan. “Temur tuzuklari”da barcha voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Asarda Amir Temurning asosiy doktrinasi - jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli feodal davlatning siyosiy va axloqiy tamoyillari ifodalangan.

Amir Temur to'la ravishda asoslangan ma'naviy talablar, ehtiyojlar, tamoyillarga tayangan holda o'sha davrda ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga katta ishonch bilan qaraganligini ham ta'kidlash kerak. U o'z sultanatida tili, e'tiqodi, urf -odatlari, xududlari turlicha bo'lgan kishilarning hamjihatligi uchun ham ko'p qayg'uradi. Juhonning turli mamlakatlaridan keltirilgan minglab hunarmandlarni ish bilan ta'minlaydi, ular o'rtasidagi munosabatlarning samimiy bo'lishiga e'tibor beradi.

“Temur tuzuklari”dagi ko'plab fikrlar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Temuriylar davrida yaratilgan bunday noyob ma'naviy meroslarni o'rganish va asrab-avaylash bizlarning insoniy burchimizdir.

Temur va temuriyzodalar yaratgan moddiy va ma'naviy meros hozirgi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Bu meroslarni asrab-avaylash va o'rganish biz, yoshlarning faxrli burchimizdir.

XULOSA

Bugungi kunda butun dunyo e'tirofiga sazovor bo'lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan va madaniyat homiysi Amir Temurning ma'nан boy hayot yo 'lini o 'rganish va unga sodiq bo 'lish, undan saboq olish yosh avlodni jasur, aql-idrokli, Ona Vatan sha'nini jahonga namoyon etish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda xizmat qilmog'i lozim. Buni yoshlarga Amir Temur shaxsiyati orqali, uning ma'naviyati, iymonu diyonati qanchalar pok va mulammal ekanligini e'tirof etish orqali yetkazish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Adabiyotlar:

1. N.Kirgizova. Amir Temur davlatining qudrati. Amir Temur – buyuk davlat arbobi. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Farg'ona, 2016 yil, 27-bet
2. Ma'naviyat yulduzlari. Toshkent, 2001 yil, 166-bet
3. Каримова, Г. Й. (2021). АХЛОҚ-МАЊНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ МАФКУРАВИЙ УСУЛИ СИФАТИДА. *Экономика и социум*, (6-1 (85)), 707-710.
4. Bekmirzaev, R. B. (2022). Socio-Economic Causes Of Ethnic Conflicts In The Ferghana Valley. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(06), 135-138.
5. Bekmirzaev, R. B. (2022). Historical and political problems of the Ferghana valley. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(6), 104-106.
6. Каримова, Г. (2022). МАЊНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. *Экономика и социум*, (3-2 (94)), 612-615.
7. Жўраев, X. П., Бекмирзаев, Р. Б., & YУсупов, Ж. (2022). ЧОР РОССИЯСИНИНГ ТУРКИСТОНГА АҲОЛИНИ КЎЧИРИШ СИЁСАТИДА ЕР БИЛАН БОГ'ЛИҚ МУАММОЛАРНИНГ ҲАЛ ЭТИЛИШИ. *ИТМОИY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 54-59.
8. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. *The Peirian Journal*, 12, 31-34.
9. Bekmirzaev, R. B. (2021). Factors affecting nation-building relationships in Fergana Valley. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 122-125.
10. Bekmirzaev, R. B. (2021). Traces Of Archaic Religions In The Modern Way Of Life Of The Peoples Of The Ferghana Valley. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(11), 41-46.
11. Jurayev, X. (2018). About history of resettlement policy of the Russian Empire on migration of the Russian people to the Ferghana valley (based on the sources of the "Turkestanskiy sbornik"). *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 53-55.
12. Juraev, K. The Problems Of Agronomic Assistance To The Population Interrogated To Turkestan By The Tsarist Russian Federation. *THE AMERICAN JOURNAL OF APPLIED SCIENCES*, 147.
13. Juraev, H. P. (2021). Assistance to the Residents of the Turkestan Region and their Activities in the Economic Sector. *Design Engineering*, 6988-6997.

14. Karimov, U., Karimova, G., & Makhamadaliev, L. (2022). The role and significance of spiritual values in youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 181-185.
15. Karimova, G., & Makhamadaliev, L. (2022). The importance of innovative ideas in increasing the effectiveness of education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(6), 143-148.
16. Ikromjon, Y. (2022). THE SIGNIFICANCE OF INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY IN FORMING CIVIL SOCIETY. *Research Focus*, 1(1), 144-151.
17. Ismoilov, I., & Qosimova, X. (2022). Oilada Erkin Fuqaro Shaxsi Va Barkamol Avlodning Shakllanishi. *So 'Ngilmiy Tadqiqotlar Nazariyasi*, 1(1), 232-238.
18. Rayimov, A. A., & Karimova, G. Y. (2021). Social Aspects Of The Formation Of Social Activity In Youth. *Oriental Journal of Social Sciences*, 29-32.
19. Usmanov, N., Ganiev, B. S., & Karimova, G. Y. (2021). The Philosophical Basis For The Formation Of Spiritual Maturity Among Young People. *Oriental Journal of Social Sciences*, 33-37.
20. Kozixodjaev, J. X. (2023). OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM BILAN TARBIYANING MUTANOSIBLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI MUAMMOLAR. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE* 2022, 2(18), 19-23.
21. Каримов, У., Хакимова, Д., & Тулкинов, З. (2018). ЗАДАЧИ ПОСТРОЕНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА. *Теория и практика современной науки*, (10), 193-195.
22. Ибрагимов, В. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИК ВА ТОЛЕРАНТЛИКНИ ЎКСАЛИТИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ. *Research Focus*, 1(4), 351-354.
23. Kosimova, G. (2020, June). THE POWER OF THE TRUE WORD. In *Archive of Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 27-29).
24. Kasimova, G. (2022). TEACHING METHODS FOR TEACHING ENGLISH AND IMPLEMENTING THE KNOWLEDGE OF CRITICAL THINKING OF STUDENTS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 27-33.
25. Qosimova, G., & Jorayev, H. An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 69.
26. Рафикова, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). ЁШЛАРНИ ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ*, 2(1).
27. Sulaymonov, K. (2022). THE INFLUENCE OF OBJECTIVE AND SUBJECTIVE FACTORS ON THE FORMATION OF THE INTELLECTUAL CULTURE OF YOUTH. *Science and Innovation*, 1(3), 688-696.
28. Pirmatovich, R. R. (2022). IX-XII ASRLARDA DUNYOVIIY ILM-FAN SOHASIDA IJOD QILGAN OLIMLAR VA ULARNING ILMIY MEROSI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 450-452.
29. Karimov, U., & Ergasheva, D. (2020). EDUCATIONAL ISSUES IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS. *Теория и практика современной науки*, (5), 18-20.